

## AYRIM MDH DAVLATLARINING JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI TAJRIBASINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi  
333-guruh kursanti, safdor  
Qurbonov Asilbek Asror o'g'li*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tarkibidagi ayrim davlatlar, xususan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Belarus va Ukrainaning jazoni ijro etish muassasalari faoliyati, ushbu muassasalarda mahkumlarni saqlash, muomala qilish va tarbiyalash tartiblari, millatlararo hamkorlik doirasidagi qonunchilik ta'jribasi, mahkumlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga yo'naltirilgan islohotlar, xalqaro huquq va Nelson Mandela qoidalariga muvofiqlashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur davlatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan ilg'or usullar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Jazoni ijro etish muassasasi, MDH davlatlari, mahkumlar huquqlari, rehabilitatsiya, xalqaro standartlar, qiynoqlarga qarshi kurash, differentsial yondashuv, Nelson Mandela qoidalari, jinoyat-ijroiya qonunchiligi, qiyosiy huquq.

**Annotation:** This article analyzes the activities of penal institutions in some CIS member states, particularly the Russian Federation, Kazakhstan, Belarus and Ukraine, including conditions of detention, treatment and rehabilitation of prisoners, legislative experience within the framework of interstate cooperation, reforms aimed at social rehabilitation, and the process of alignment with international law and the Nelson Mandela Rules. The article also examines advanced practices from these states that may be relevant for the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** Penal institution, CIS states, prisoners' rights, rehabilitation, international standards, anti-torture, differentiated approach, Nelson Mandela Rules, criminal executive legislation, comparative law.

**Аннотация:** В данной статье анализируются деятельность исправительных учреждений некоторых государств СНГ, в частности Российской Федерации, Казахстана, Беларуси и Украины, включая условия содержания, обращения и реабилитации осуждённых, законодательный опыт в рамках межгосударственного сотрудничества, реформы, направленные на социальную реабилитацию, а также процесс сближения с нормами Манделы.

**Ключевые слова:** Исправительное учреждение, страны СНГ, права заключённых, реабилитация, международные стандарты, противодействие пыткам, дифференцированный подход, правила Нелсона Манделы, уголовно-исполнительное законодательство, сравнительное право.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida shakllanayotgan yagona huquqiy makonda jazoni ijro etish siyosati alohida o'rin tutadi. MDH a'zo davlatlari o'rtasida jinoyat-ijroiya qonunchiligi sohasidagi hamkorlik 1992-yildan boshlab yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu davlatlar o'z tarixiy va huquqiy meroslarini saqlab qolgan holda xalqaro standartlarga muvofiq islohotlar amalga oshirmoqda.<sup>1</sup>

Rossiya Federatsiyasida jazoni ijro etish tizimi Federal Jazoni ijro etish xizmati (FSIN) tomonidan boshqariladi. Rossiya Federatsiyasining 1997-yildagi Jinoyat-ijroiya kodeksi mahkumlarning asosiy huquq va majburiyatlarini, jazo muddatini o'tashning tartib va shartlarini, mahkumlarni toifalash hamda jazoni individuallashtirish tamoyillarini belgilab beradi.<sup>2</sup>

Rossiya tajribasida mahkumlarni rehabilitatsiya qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida kasb-hunar ta'limi tashkil etilishi, mehnat terapiyasidan foydalanilishi, retsivid jinoyatchilikni kamaytirish bo'yicha psixologik dasturlar joriy etilishi ilg'or amaliyot sifatida baholanmoqda.<sup>3</sup>

Qozog'iston Respublikasida 2014-yilda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksi mamlakatning Yevropa Kengashi bilan integratsiya yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'ldi. Ushbu kodeks mahkumlarni saqlash sharoitlarini Nelson Mandela qoidalariga moslashtirishni, ozodlikdan mahrum etishning muqobil choralari doirasini kengaytirishni hamda mahkumlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish mexanizmlarini mustahkamlashni nazarda tutadi.<sup>4</sup>

Qozog'istonda muqobil jazo choralari, ya'ni shartli muddatdan oldingi ozod qilish, uy qamog'i va elektronik nazorat kabi zamonaviy usullar keng joriy etilmoqda. Bundan tashqari, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash alohida huquqiy tartibga solingan va ularni tarbiyalash koloniyalarida ta'lim va psixologik yordam markazlari faoliyat ko'rsatadi.

Belarus Respublikasida jazoni ijro etish muassasalari "to'g'rilash muassasalari" deb atalib, unda mahkumlarni ijtimoiy qayta joylashtirish dasturlari alohida o'rin tutadi.<sup>5</sup>

Belarus qonunchiligi mahkumlarning mehnat qilish huquqini, kasb-hunar ta'limiga jalb etilishini, diniy marosimlarni bajarishini va yuridik yordam olishini kafolatlaydi. Shuningdek, Belarus muassasalarida oilaviy aloqalarni saqlashga alohida

---

<sup>1</sup>Qozonov S.S., Bekova M.J. «Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-ijroiya kodeksi», Moskva, 2022.

<sup>2</sup>Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonunchiligi: <https://adilet.zan.kz>

<sup>3</sup>BMT Mahbuslar bilan muomala bo'yicha minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari), 2015-yil: <https://www.ohchr.org>

<sup>4</sup>Belarus Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonunchiligi to'g'risida: <https://etalonline.by>

<sup>5</sup>Ukraina Jinoyat-ijroiya kodeksi va islohotlar: <https://zakon.rada.gov.ua>

e'tibor berilib, mahkumlarning yaqinlari bilan qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlari yo'lga qo'yilgan.

Ukraina Respublikasida 2003-yilda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksi Yevropa Kengashining me'yorlariga yaqinlashuvni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.<sup>6</sup>

Ukraina tajribasida milliy probasyon tizimining shakllantirilishi, jinoiy jazolarni ijtimoiy nazorat ostida o'tashning rivojlantirilishi va qamoq jazosiga alternativa sifatida jamoat ishlari mexanizmining kengaytirilishi diqqatga sazovor. Ushbu tajribalar qo'shni MDH davlatlari uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan MDH davlatlari tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning barchasida jazoni ijro etish tizimini takomillashtirishning umumiy yo'nalishlari mavjud: mahkumlarga munosabatda insonparvarlik tamoyillariga rioya etish, xalqaro standartlar, xususan Nelson Mandela qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, mahkumlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga ustuvorlik berish hamda qamoq jazosiga alternativ choralarni kengaytirish.<sup>7</sup>

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligi ham MDH davlatlarining ilg'or tajribalarini o'rganib, o'z islohotlari uchun zarur xulosalar chiqarmoqda.<sup>8</sup> Shu jumladan, mahkumlar bilan muomala qilishning zamonaviy usullarini joriy etish, psixologik yordam xizmatini kuchaytirish va ozodlikdan mahrum etishning muqobil choralarni rivojlantirish borasida qo'shni davlatlar tajribasidan samarali foydalanilmoqda.<sup>9</sup>

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida "Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega" deb belgilanishi<sup>10</sup> MDH davlatlari qonunchiligidagi o'xshash normalar bilan hamohang ekanligi e'tiborga molik.

**Rossiya Federatsiyasi tajribasi.** Rossiya Federatsiyasida jazoni ijro etish tizimi o'z tarixi va tuzilishi jihatidan eng murakkab va ko'p qirrali tizimlardan biri hisoblanadi. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, FSIN tizimida 1000 dan ortiq muassasa mavjud bo'lib, ularda 400 mingdan ziyod mahkum jazo muddatini o'tamoqda. Tizim tuzilishiga ko'ra, umumiy rejimli koloniyalar, qat'iy rejimli koloniyalar, maxsus rejimli koloniyalar, tarbiya koloniyalari va tergov hibsonalariga bo'linadi.

Rossiya Federatsiyasida mahkumlarni toifalash differentsial yondoshuv asosida

<sup>6</sup>MDH doirasida jinoyat-ijroiya qonunchiligi hamkorligi: <https://cis.minsk.by>

<sup>7</sup>Mirzayev N. «Jinoyat-ijroiya huquqi». T-2016.

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi, T-2023 «Yuridik adabiyotlar publish»: <https://lex.uz/acts/-163629>

<sup>9</sup>Rossiya Federatsiyasida retsiv jinoyatchilik va profilaktika: <https://fsin.gov.ru>

<sup>10</sup>Qozonov S.S. «Xalqaro jinoyat-ijroiya huquqi», Moskva, 2020.

amalga oshiriladi. Birinchi marta jinoyat sodir etganlar, retsdivistlar, ayollar, voyaga yetmaganlar va umrbod hukm qilinganlar alohida muassasalarda saqlanadi. Bu yondashuv mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishda muhim omil sifatida baholanadi, chunki turli toifadagi jinoyatchilarning bir-biriga salbiy ta'sir ko'rsatishi oldini oladi.

Rossiya Federatsiyasida mahkumlarni mehnatga jalb etish keng amaliyot sifatida qo'llanilib, koloniyalarda ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilgan. Mahkumlar mebel, to'qimachilik, metallga ishlov berish va boshqa sohalarda ishlaydi. Mehnat jarayoni mahkumni tarbiyalash va unga kasb o'rgatishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, mehnat majburiy xarakter kasb etmasligi va mahkumlarning roziligiga asoslanishi ta'kidlanadi.

Rossiya Federatsiyasida 2019-yildan boshlab probasyon tizimining rivojlantirilishi bo'yicha bir qancha qonunchilik islohotlari amalga oshirildi. Ozodlikdan mahrum etishga muqobil choralar, jumladan shartli jazo, ijtimoiy ishlar va elektron monitoring kabi usullar kengaytirilmoqda. Bu esa jazo siyosatini insonparvarlashtirish va mahkumiyat xarajatlarini kamaytirish imkonini bermoqda.

**Qozog'iston Respublikasi tajribasi.** Qozog'iston Markaziy Osiyo mintaqasida jazoni ijro etish tizimini islohotlarini eng faol amalga oshirgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. 2010-yillarda amalga oshirilgan islohotlar doirasida mamlakatning jazoni ijro etish bo'yicha qonunchiligi tubdan qayta ko'rib chiqildi va xalqaro standartlarga moslashtirish ishlarida sezilarli yutuqlarga erishildi.

Qozog'iston Respublikasida 2015-yildan boshlab probasyon xizmati faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Probasyon xizmati ozodlikdan mahrum etishga mahkum etilmagan, ammo muayyan jazo choralari tortilgan shaxslar ustidan nazorat o'rnatadi. Bundan tashqari, shartli muddatdan oldingi ozod qilinganlar ham probasyon nazorati ostiga olinadi va ularning ijtimoiy hayotga qayta moslashuviga ko'maklashiladi.

Qozog'iston tajribasida ayniqsa voyaga yetmaganlar bilan ishlash tizimi e'tiborga loyiqdir. Yosh jinoyatchilar uchun maxsus tarbiyalash muassasalari tashkil etilgan bo'lib, ularda ta'lim olish majburiy hisoblanadi. Muassasalarda psixologlar, ijtimoiy xodimlar va pedagog mutaxassislardan iborat komandalar faoliyat yuritadi. Voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalashda oila va jamoatchilik vakillari ham faol ishtirok etadi.

Qozog'istonda jazoni ijro etish muassasalarida tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi ham sezilarli darajada takomillashtirilgan. Har bir muassasada tibbiy xona va zarurat bo'lganda mahkumlarni tashqi shifoxonalarga yo'llash mexanizmi yo'lga qo'yilgan. O'g'ir kasalga chalingan mahkumlarni muddatidan oldin ozod qilish imkoniyati ham qonunchilikda mustahkamlangan.

**Belarus Respublikasi tajribasi.** Belarus Respublikasida jazoni ijro etish muassasalari tizimi sobiq Sovet Ittifoqi merosini saqlab qolgan holda bir qator muhim

islohotlarni amalga oshirdi. Hozirgi kunda mamlakatda to'g'rilash koloniyalari, tergov hibsonalari, tarbiya koloniyalari va ochiq muassasalar ("himoya koloniyalari") faoliyat ko'rsatmoqda.

Belarus Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tizimi davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Mahkumlar ozodlikka chiqishidan oldin kasbiy tayyorgarlikdan o'tkaziladi va ish joyiga joylashtirishda ko'mak ko'rsatiladi. Bundan tashqari, ozodlikka chiqayotgan mahkumlarni psixologik jihatdan tayyorlash dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular keyingi hayotga moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Belarus tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, mahkumlar kolektiv hayot tarziga katta e'tibor beriladi. Muassasa ichidagi o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyat ko'rsatadi va mahkumlar muassasa hayotining ma'lum masalalarida qaror qabul qilish jarayoniga jalb etiladi. Bu usul mahkumlarning mas'uliyatini oshirish va ularni demokratik hayotga tayyorlashning samarali vositasi sifatida baholanmoqda.

**Ukraina Respublikasi tajribasi.** Ukraina Respublikasida jazoni ijro etish tizimini islohtlash jarayoni 2000-yillarning boshidan boshlab faollashdi. 2003-yilda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksi Yevropa me'yorlari asosida ishlab chiqilib, mahkumlar huquqlarini keng kafolatlabdi. Keyinchalik 2012-yilda Ukrainada probasyon xizmati to'g'risidagi maxsus qonun qabul qilindi.

Ukrainada jinoyat-ijroiya tizimida fuqarolik jamiyati institutlarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Nohukumat tashkilotlar, diniy jamoalar va ko'ngilli tashkilotlar jazoni ijro etish muassasalariga erkin kirish huquqiga ega bo'lib, mahkumlarning huquqlarini himoya qilish, psixologik yordam ko'rsatish va ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Ukraina probasyon tizimida ozodlikka chiqayotgan mahkumlarga individual rehabilitatsiya rejasi tuziladi. Har bir shaxs uchun ijtimoiy xodim biriktiriladi va u ozodlikka chiqqandan keyin kamida bir yil davomida kuzatib boradi. Bu tizim retdidiv jinoyatchilik darajasini sezilarli pasaytirganligini amaliyot ko'rsatmoqda.

**MDH davlatlari tajribasining qiyosiy tahlili.** Yuqorida ko'rib chiqilgan to'rtta MDH davlatining jazoni ijro etish tizimlarini qiyosiy tahlil qilish bir qator umumiy xususiyatlar va farqlarni ko'rsatadi. Umumiy jihatdan, barcha to'rtta davlat ham sobiq sovet tizimidan meros qolgan muassasalar negizida islohotlar amalga oshirib, ularni zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirmoqda.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, probasyon tizimini joriy etish barcha to'rtta davlatda ustuvor yo'nalishga aylangan. Qozog'iston va Ukrainada bu tizim nisbatan rivojlangan shaklga ega bo'lsa, Rossiya va Belarusda ham unga o'tish jarayoni faol davom etmoqda. Probasyon ozodlikdan mahrum etishga muqobil sifatida nafaqat insonparvarlik nuqtai nazaridan, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi.

MDH davlatlarining barchasida mahkumlarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi qonun bilan kafolatlangan. Biroq amaliyotda bu huquqning amalga oshirilishi

muassasalar moddiy ta'minoti va tibbiy xodimlar malakasiga bog'liq ravishda farqlanadi. Nelson Mandela qoidalarining 24-27-moddolari tibbiy xizmat ko'rsatish masalalarini batafsil tartibga soladi va MDH davlatlari ushbu talablarni milliy qonunchiligiga bosqichma-bosqich kiritmoqda.

MDH doirasidagi hamkorlik doirasida 2005-yilda imzolangan "Jinoiy jazolarni ijro etish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitim a'zo davlatlar o'rtasida mahkumlarni o'zaro uzatish, huquqiy yordam ko'rsatish va qonunchilik tajribasini almashish mexanizmlarini belgilab bergan. Ushbu bitim asosida MDH davlatlari o'rtasida yilik uchrashuvlar o'tkazilib, muammolar muhokama qilinadi va eng yaxshi tajribalar tarqatiladi.

O'zbekiston Respublikasi uchun MDH davlatlari tajribasidan muhim xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, probasyon institutini rivojlantirish va uning huquqiy asoslarini mustahkamlash zarur. Ikkinchidan, mahkumlar bilan ishlashda psixologik xizmat va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini kuchaytirish lozim. Uchinchidan, fuqarolik jamiyati tashkilotlarining jazoni ijro etish muassasalari bilan hamkorligini yanada faollashtirish maqsadga muvofiqdir. To'rtinchidan, xalqaro standartlar, xususan Nelson Mandela qoidalari talablariga muvofiq muassasalarning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish davom ettirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, MDH davlatlarining jazoni ijro etish muassasalari tajribasi ko'p jihatdan o'xshash tarixiy sharoitlar mahsuli bo'lsa-da, har bir davlat o'z milliy xususiyatlaridan kelib chiqib islohotlar amalga oshirmoqda. Rossiya Federatsiyasining keng qamrovli federal tizimi, Qozog'istonning Yevropa standartlariga integratsiyalashuv tajribasi, Belarus Respublikasining ijtimoiy qayta joylashtirish dasturlari va Ukrainaning probasyon tizimidagi ilg'or yondashuvlari O'zbekiston uchun foydali taqqoslash manbayi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tajribalarni tanqidiy o'rganish va milliy huquq tizimiga muvofiq tatbiq etish orqali O'zbekiston Respublikasi jazoni ijro etish tizimini yanada takomillashtirishi, mahkumlar huquqlarini ishonchli himoya qilishi va xalqaro standartlarga to'liq mos keluvchi muassasalar tizimini barpo etishi mumkin.<sup>11</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T-2023 "O'zbekiston" nashriyoti;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, T-2023 "Yuridik adabiyotlar publish";
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi, T-2023 "Yuridik adabiyotlar publish";
4. Mirzayev N. T-2016, "Jinoyat-ijroiya huquqi";
5. Qozonov S.S. "Xalqaro jinoyat-ijroiya huquqi", Moskva, 2020;
6. Qozonov S.S., Bekova M.J. "Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-ijroiya kodeksi",

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda): T-2023, <https://lex.uz/docs/-6445145>

Moskva, 2022;

7. BMT Mahbuslar bilan muomala bo'yicha minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari), 2015-yil: <https://www.ohchr.org>;
8. MDH doirasida jinoyat-ijroiya qonunchiligi hamkorligi: <https://cis.minsk.by>;
9. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonunchiligi: <https://adilet.zan.kz>;
10. Belarus Respublikasi qonunchiligi: <https://etalonline.by>;
11. Ukraina Jinoyat-ijroiya kodeksi: <https://zakon.rada.gov.ua>.
12. Isroilov X. T-2014, "Xalqaro jinoyat huquqi";
13. Beqboev S. T-2018, "Jinoyatlarni jazolashda xalqaro huquqning roli";
14. Bassiouni M.C. Chicago-1999, "International Criminal Law: A Guide for Judges";
15. Rustambayev M. "O'zbekiston: Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishga oid yangi islohotlar va ularning amaliy natijalari", [www.uzembassy.kz](http://www.uzembassy.kz);
16. "Qamoq jazosi bilan bog'liq bo'lmagan chora-tadbirlar bo'yicha minimal standart qoidalari" (Tokio qoidalari), BMT, 1990-yil;
17. "BMTning mahkum ayollarga munosabati va huquqbuzar ayollarga nisbatan qamoqqa olinmaslik choralari bo'yicha qoidalari" (Bangkok qoidalari), 2010-yil;
18. "Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish bo'yicha BMT qoidalari", 1990-yil;
19. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>.